

34. Yig'indidan sonni ayirish

Yondosh mavzu:
Uchuvchi vositalar

Qo'shishning xossalari,
ayirishning xossalari.



$$\begin{array}{rcl} \boxed{} - \boxed{} & = & 6 \\ + & + & \\ \boxed{} - 2 & = & 6 \\ \text{II} & \text{II} & ? \\ 40 & & \end{array}$$

1. 18-noyabrga dronlar shousi tayyorlandi. Ko'k rangli dronlar 45 ta, yashil rangli dronlar 40 ta edi. Ulardan 5 ta dron zaxiraga olib qo'yildi. Osmonga nechta dron uchdi?



Misollarning mazmunini tushuntiring.

$$(40 + 45) - 5 = 85 - 5 = 80$$

$$(40 + 45) - 5 = 40 + (45 - 5) = 40 + 40 = 80$$

$$(40 + 45) - 5 = (40 - 5) + 45 = 35 + 45 = 80$$



Yig'indidan sonni ayirish uchun uni istalgan qo'shiluvchidan ayirish va natijaga ikkinchi qo'shiluvchini qo'shish mumkin.

$$(a + b) - c = (a - c) + b$$

$$(a + b) - c = a + (b - c)$$

2. Misollarni yig'indidan sonni ayirish xossasi yordamida yeching.

$$(20 + 37) - 7$$

$$(12 + 24) - 14$$

$$(35 + 47) - 5$$



3. Tenglamalarni yeching.

$$(x + 25) - 15 = 49$$

$$(22 + y) + 28 = 90$$

$$(37 + z) - 16 = 58$$

$$47 + (13 + t) = 92$$



- 4.** Masala shartini yozishning yangi usuli bilan tanishamiz. Masalani yeching.

I — ?, 37 ta kulrang va 28 ta oq rang
II — 25 ta kulrang

? ta ko'p



- 5.** Hisoblashni bajarmay taqqoslang. O'zgaruvchilar "0" dan boshqa har qanday son bo'lishi mumkin.

$$\begin{array}{lll} a - 7 \square a + 8 & d + 0 \square d - 0 & m + 19 \square 19 + m \\ b - 6 \square b - 9 & f + 0 \square f + f & 23 - n \square 32 - n \end{array}$$



- 6.** Agar:

- a) $a = 49$, $b = 15$, $c = 19$;
- b) $a = 26$, $b = 14$, $c = 16$;
- c) $a = 25$, $b = 28$, $c = 17$;
- d) $a = 26$, $b = 45$, $c = 34$ bo'lsa,
 $(a + b) - c$ ifodaning qiymatini toping.



- 7.** Jadval bo'yicha tenglama tuzing va yeching.

Kamayuvchi	$(47 + x)$	$(y + 18)$	$(25 + 7)$	$(50 - 26)$
Ayriluvchi	25	17	z	t
Ayirma	41	68	16	18



- 8.** Maktab o'quvchilari yasagan raketa modellari tanlovida katta sinf o'quvchilari yasagan 27 ta model, o'rta sinf o'quvchilari yasagan 24 ta model taqdim etildi. Shundan 17 ta model saralash bosqichidan keyingi turga o'ta olmadi. Keyingi turda nechta model ishtirok etgan?